



## THE DIALOGICAL NATURE OF COGNITION AND UNDERSTANDING IN IBN SINA'S LOGICAL DOCTRINE

*Oysafar Umarovna Majidova*

*Acting Associate Professor, Department of Philosophy and Logic*

*National University of Uzbekistan*

*Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor*

*E-mail: [oysafar72@gmail.com](mailto:oysafar72@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Ibn Sina, Avicenna, dialogic logic, theory of cognition, gnoseology, syllogistics, concept formation, maieutics, Eastern philosophy, epistemology, question-answer method.

**Received:** 20.05.26

**Accepted:** 21.05.26

**Published:** 22.05.26

**Abstract:** This article systematically examines the dialogic nature of cognition and understanding in Ibn Sina's (980–1037) logical-philosophical heritage. Based on his works *Kitab al-Shifa*, *Kitab al-Najat*, *Danishnama*, and *Mantiq*, the study investigates his question-answer methodology, syllogistic discourse structure, and intersubjective mechanisms in concept formation. The article demonstrates that Ibn Sina creatively developed Aristotelian logic, shifting the cognitive process from individual thinking to dialogic communication. The research identifies the systematic significance of dialogic principles in Ibn Sina's epistemological system and reveals its connections to contemporary epistemology and dialogic logic theories.

### IBN SINO MANTIQUIY TA'LIMOTIDA BILISH VA TUSHUNISHNING DIALOGIK TABIATI

*Oysafar Umarovna Majidova*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Falsafa va mantiq kafedrasi dots. v.b.*

*falsafa doktori (PhD) dotsent*

*e-mail: [oysafar72@gmail.com](mailto:oysafar72@gmail.com)*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Ibn Sino, dialogik mantiq, bilish nazariyasi, gnoseologiya, sillogistika, tushuncha, mayevtika, Sharq falsafasi, epistemologiya, savol-javob metodi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ibn Sino (980–1037) mantiqiy-falsafiy merosida bilish va tushunish jarayonlarining dialogik tabiati tizimli tarzda tahlil etiladi. Mutafakkirning «Kitob ash-Shifo», «Kitob an-Najot», «Danishnoma» asarlari asosida uning savol-javob metodologiyasi, sillogistik munozara tuzilishi va tushunchalar shakllanishidagi intersubʼektiv mexanizmlar oʻrganiladi. Maqolada Ibn Sinoning Arastu mantigʻini ijodiy rivojlantirgani va u bilish jarayonini yakka shaxs fikrlashidan dialogik kommunikatsiyaga koʻchirganligi isbotlanadi. Tadqiqot natijasida Ibn Sinoning gnoseologik tizimida dialogik prinsiplarning ahamiyati aniqlangan va uning zamonaviy epistemologiya hamda dialogik mantiq nazariyalari bilan bogʻliqligi koʻrsatilgan.

---

## ДИАЛОГИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ПОЗНАНИЯ И ПОНИМАНИЯ В ЛОГИЧЕСКОМ УЧЕНИИ ИБН СИНЫ

**Ойсафар Умаровна Мажидова**

*Исполняющая обязанности доцента кафедры философии и логики*

*Национального университета Узбекистана*

*Доктор философии (PhD), доцент*

*E-mail: [oysafar72@gmail.com](mailto:oysafar72@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Ибн Сина, диалогическая логика, теория познания, гносеология, силлогистика, понятие, майевтика, восточная философия, эпистемология, метод вопроса и ответа.

**Аннотация:** В данной статье системно анализируется диалогическая природа процессов познания и понимания в логико-философском наследии Ибн Сины (980–1037). На основе трудов мыслителя «Китаб аш-Шифа», «Китаб ан-Наджат», «Донишнома» исследуются его методология вопроса и ответа, структура силлогистической дискуссии, а также intersubʼективные механизмы формирования понятий. В статье доказывается, что Ибн Сина творчески развил аристотелевскую логику и перенёс процесс познания из сферы индивидуального мышления в плоскость диалогической коммуникации. В результате исследования выявлено значение диалогических принципов в

гносеологической системе Ибн Сины и показана их связь с современной эпистемологией и теориями диалогической логики.

---

**Kirish.** O'rta asr islom falsafasining benazir namoyandasi Abu Ali ibn Sino (980–1037) - g'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur - nafaqat tibbiyot va tabiiy fanlar sohasida, balki mantiq, metafizika va gnoseologiya sohasida ham insoniyat tafakkur tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkir. Uning 450 dan ortiq asaridan 240 ga yaqini bizgacha yetib kelgan va ular dunyo ilm-fani tarixini boyitgan meros sifatida e'tirof etiladi.

Mutafakkirning mantiqiy-falsafiy ta'limoti - ko'p jildli «Kitob ash-Shifo», «Kitob an-Najot», fors tilidagi «Donishnoma» va yana bir qator asarlarda Arastu an'analarini ijodiy rivojlantirish va uni islom faylasuflari - Forobiy, Kindi, G'azzoliy - bilan munozara asosida yangi bosqichga olib chiqish natijasidir. Bu asarlarda mantiq empirik va spekulativ bilishning kuchvositasi, tushunchalar va hukmlar tuzilishini o'rganuvchi fan sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq Ibn Sino mantig'ining dialogik tabiati - uning savol-javob metodologiyasi, sillogistik munozara tuzilishi va tushunchalar shakllanishidagi intersub'ektiv mexanizmlari bugungacha tadqiqotchilarning e'tiboriga to'liq tushmagan. Ko'pchilik olimlar Ibn Sinoni Arastuning davomchisi sifatida monologik nuqtai nazardan o'rgansa, uning fikrlash jarayonida dialogik prinsiplarning tizimli roli deyarli o'rganilmagan[1].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** XX asrda jahon olimlari sharq mutafakkirlari, jumladan Ibn Sino ta'limotini o'rganishga, uning asarlari ma'nosining hozirgi davrdagi ahamiyatini ochib berishga oid monografiyalar nashr etilgan, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, xorij olimlari K.Brokkelman va J.Sh.Kanavati tadqiqotlarida Ibn Sinoning riyoziyotga oid ta'limotining mohiyati ochib berilgan[2]. N.Resharning "Arab mantig'ining rivojlanishi" monografiyasida Ibn Sinoning mantiq fanining rivojlanishiga qo'shgan hissasi alohida e'tirof etilgan[3]. MDH xususan, Rossiya sharqshunos olimi A.Smirnov Ibn Sino ta'limoti zamonaviy mantiqning nazariy asosi ekanligini[4]. Markaziy Osiyo davlatlarida ham Ibn Sinoning ijodiy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, tojik faylasufi M.Dinorshoev Ibn Sinoning tabiiy ilmiy ta'limotlari bilan bir qatorda mantiqiy qarashlarining mohiyatini[5] F.Xudoydodov Aristotel va Ibn Sino sillogistik ta'limotlarining qiyosiy taxlilini[6] Qirg'iziston olimi K.Z.Eshonqulova "Ibn Sino falsafasida bilish muammolari" ilmiy tadqiqotida bilish bosqichlari tartibini o'rgangan[7]. O'zbekiston tarixchi, faylasuf, tibbiyot sohasi olimlari Ibn Sino asarlarining zamonaviy fan taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaraganlar. Xususan, akademik

I.M.Mo‘minov Ibn Sinoning ontologik va gnoseologik, V.Zohidov va M.Xayrullaev ijtimoiy-siyosiy qarashlarining mohiyatini tadqiq qilgan[8]. M.Ahadova Ibn Sinoning “Kitob ash-Shifo”, “Kitob an-najot, “Donishnoma” asarlarida riyoziyot, falakiyot va fizikaga oid qarashlarining ahamiyatini asoslagan[9]. M.N.Boltaevning “Abu Ali Ibn Sino” nomli monografiyasida mutafakkir faoliyatining barcha jihatlari va ayniqsa mantiqiy qarashlaridagi sezgi va tasavvur, aql va idrok uyg‘unligiga oid fikrlarining ahamiyatini ochib berilgan[10]. A.Imomho‘jaeva va D.Fayziho‘jaeva mantiqiy ta’limotini tadqiq etgan[11]. Mutafakkirning “Donishnoma” va “Al-ishorat va at-tanbihot” asarlari tafakkur shakllari, xususan, hukm (mulohaza)lar haqidagi ilmiy qarashlari ancha keng bayon etgan asarlari bo‘lib, ratsional bilishdagi mantiqiy-gnoseologik g‘oyalar tarixini o‘rganish nafaqat o‘tmish madaniyati va falsafasini, balki hozirgi davrga xos g‘oyaviy jarayonlarni to‘g‘ri tushunishga xam imkon beradi.

**Muhokama va natijalar.** Ushbu maqolada quyidagi asosiy tezis ilgari suriladi: Ibn Sino mantiq‘ida bilish va tushunish jarayoni monologik emas, balki dialogik tabiatga ega. Bilish - Ibn Sino mantiqiy ta’limotida - savollashuv, tortishuv, isbot va rad etish jarayonlarining dialektik birligidan iborat. Mazkur dialogik prinsip uning sillogistikasida, «Majmu’ jadal» asaridagi bahs qoidalarida va «Ahvol an-nafs» psixologiyasidagi bilish tasnifida aniq ko‘zga tashlanadi.

Arastu mantiq tushunchalarni voqelikning kategoriyalariga bevosita bog‘lasa, Farobiy ham predikabiliyalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan tushuncha-larning ta’riflanishiga oid masalalarni batafsil tahlil qiladi. Mutafakkir “Logika to‘g‘risidagi risola muqaddimasida”[12]. predikabiliyalarni sub’ekt-predikat munosabatlari doirasida ko‘rib chiqadi. Risolaning xajmi katta bo‘lmasa ham, unda mantiq ilmida o‘rganiladigan masalalar haqida qisqa va muhim ma’lumotlar berilgan, mantiq ilmida o‘rganish zarurligi va buning foydali tomonlari ko‘rsatilgan. Farobiy: “Logika san’ati falsafaning u yoki bu qismlarida qo‘llangan hollarda nazariy va amaliy san’atlarni qamrab oluvchi haqiqiy bilimni qo‘lga kiritish asbobidir. Logika san’atisiz qaysi bir (ilm)da bo‘lmasin haqiqiy bilimga erishishning yo‘li yo‘qdir”, -deb ta’kidlar ekan, nafaqat falsafada, balki ilmning boshqa sohalarida ham mantiq chin bilimlarga erishishga yordam beruvchi fan ekanligini uqdiradi. Bilamizki, har bir fan o‘z o‘rganish sohasiga, muayyan qonuniyatlar va kategoriyalar (tushunchalar) tizimiga ega. Kategoriyalar, ilmiy atamalarning to‘g‘ri ta’riflanishi fanning rivojida, ilmiy kashfiyotlarning natijalarini talqin qilishda nihoyatda muhimdir. Ta’riflar va umuman fikr-mulohazalarni to‘g‘ri qurish uchun esa, predikabiliyalarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish talab qilinadi.

Ibn Sino har qanday umumiy tushuncha yo jins (hayvon) yo tur (inson), yo tur belgisi (so‘zlovchi) yoki xos belgi (kuladigan) yoki umumiy aksidental belgi (xarakatlanuvchi, oq, qora)

bo'ladi deb, ta'kidlaydi. [13]. Bunga ko'ra ikki narsaning substansiyasi jihatidan o'xshashligini ifodalovchi ikki sodda predikatdan umumiyrog'i jins, juz'iyrog'i esa tur deb, ataladi. Masalan, odam va hayvon (tushunchalari) yordamida Zayd va Umar o'z substansiyalari jihatidan o'xshaydilar, bunda hayvon ularga nisbatan jins, odam esa tur (tushuncha)dir. Chunki "odam" tushunchasi "hayvon"» tushunchasiga nisbatan xususiyroqdir, ya'ni hajmi torrokdir. Jins va turga ko'ra, farq qiluvchi umumiy tushunchalarning har biri «Bu individium nima?» degan savolga javob bo'ladi. Universalialar orasida eng umumiy yoki eng xususiy xarakterdagilari bo'lib, ularning o'rtasida oraliq zanjirlar mavjud bo'ladi. Ikki universaliyadan umumiyrog'i jins, xususiyrog'i tur bo'ladi. O'zidan yuqorida hech narsa bo'lmagan eng umumiy universaliya «yuqori jins», undan pasti bo'lmagan xususiy universaliya esa «oxirgi tur» deyiladi.

Ibn Sino gnoseologiyasida savol - harakatsiz emas, balki gnoseologik harakatning boshlanish nuqtasi. U o'zining «Ikkinchi Tahlilot» sharhida «matlub» (izlanadigan narsa) tushunchasini batafsil ishlab chiqadi: izlanish har doim muayyan savoldan boshlanadi va javob savolning mantiqiy tuzilishiga mos bo'lishi shart[14].

Ibn Sino asarlarida muallim-shogird nisbati nafaqat pedagogik, balki gnoseologik ahamiyatga ega. «Danishnoma»ning kirish qismida Ibn Sino o'zi u yozgan asarni o'qiydigan insonni «Joniy mahzun» (qalbi mushkulda) deb ataydi va u bilan dialog o'rnatadi – u nimalarni bilmasligi, nimalarga savoli borligidan boshlaydi [15].

Ibn Sinoning pedagogik-dialogik metodi to'rt bosqichdan iborat:

1. Aporiya - tushunchasizlik holati. Shogirdga ma'lum tushuncha to'g'risidagi noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan bilim ko'rsatiladi.

2. Taarruzot - e'tirozlar. Mavjud tushunchaga qarshi dalillar ketma-ket tortiladi - shogird o'z «bilimi»ning zaifligini his qiladi.

3. Hall - yechim. Tartibli savollar orqali yangi va to'g'ri tushuncha birga shakllantiriladi.

4. Tasdiq - tasdiqlash. Olingan bilim amaliy sinov yoki yangi masalaga tatbiq orqali mustahkamlanadi.

Bu to'rt bosqich Sokrat mayevtikasi bilan ajoyib o'xshashlik namoyon etadi ya'ni, aporiya, elegxos, sintez, tasdiq. Biroq Ibn Sino bu jarayonni Arastu sillogistikasi asosida rasmiylashtiradi: har bir «hall» bir yoki bir nechta demonstrativ sillogizm ko'rinishida beriladi.

Arastu sillogizmini monologik xulosa chiqarishning asbobi deb qabul qilish an'anaviy. Ammo Ibn Sino «Ikkinchi Tahlilot» sharhida sillogizmni munozara jarayonida argumentatsiyani tartibga soluvchi vosita sifatida ko'radi: «Isbotlovchi sillogizm nafaqat yakka aql yuritishning, balki munozaradagi dalilning ham qoidasi» [16].

Xususan, Ibn Sinoning «yordamchi sillogizm» tushunchasi dialogik ahamiyatga ega: munozarachi raqibning o'z tezisidan foydalanib, uni mantiqiy jihatdan rad etadi. Bu «Sokratik Elegxos» mexanizmining sillogistik analogidir [17].

**Xulosa.** Ibn Sino mantiqiy ta'limotida bilish va tushunishning dialogik tabiatini tizimli o'rganib, quyidagi xulosaga kelindi:

1. Ibn Sino asarlarida bahs-munozaraning rasmiy tuzilishini, ishtirokchi majburiyatlari, dalil toifalari, dialog normalari - zamonaviy dialogik mantiq standartlariga mos ekanligi, zamonaviy proponent - opponent tuzilishiga ega ekanligi.

2. To'rt matlub - nazariyasi zamonaviy savol mantig'i (Erotetic Logic)ning IX–X asr antitsipatsiyasi. Savolning mantiqiy tuzilishi javobni belgilaydi degan prinsip Ibn Sino va Belnap-Stilda yagona.

3. Ibn Sinoning pedagogik-gnoseologik metodi - aporiya, taarruzot, hall, tasdiq - Sokrat mayevtikasining sillogistik ifodasi va Vigotskiy «yaqin rivojlanish zonasi»ning o'rta asr versiyasi. Bilish - monologik emas, intersub'ektiv jarayon. Ibn Sinoning dialogik mantig'i bugungi kunda ham amaliy ahamiyatga ega - ta'lim, bahs madaniyati, media savodxonligi va falsafiy tadqiqotlarda. Ibn Sino «monolog»chi emas - u dialog orqali biluvchi mutafakkir. Uning mantig'i - savollashuv, rad etish, tuzatish va birgalikda xulosa chiqarishning tizimli usuli. Ushbu dialogik prinsiplarni XI asrdayoq ishlab chiqqan Ibn Sino – nafaqat Sharq, balki umumbashariy dialogik mantiq nazariyasining peshqadam asoschilaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Metz, T. (2014). African Ethics and the Neglect of Context. *Journal of African Philosophy*, 3(1), 1–18.
2. Brockkelman C. *Geschichte der Arabischen Literatur*, 1, p.452-458. Berlin, 1902.; Wiedemann E. *Zur Geschichte der Astrologie*. "Das Weltall", Bd. 22.1922. 121-126;
3. Решар Н. *The development of Arabic logic*.- Питербург, 1963. – P.68.
4. Смирнов А. *Философская мысль исламского мира. Исследования Том-1*. Москва:2009. - С.531.
5. Диноршоев М. *Натурфилософия Ибн Сины*. Душанбе: "Дониш", 1985.
6. Худойдодов Ф.Б. *Сравнительный анализ теории силлогистики Аристотеля и Ибн Сины*. –Душанбе, 2017.
7. Эшонкулова К. *Проблема познаний в философии Ибн Сины*. Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. "Общественная Академия ученых Кыргызской Республики (Бишкек). Номер: 3 Год: 2017. – 214 с.

8. Муминов И.М. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане Тошкент-1957. Зохидов В. Три титана. Т.: 1973. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. Тошкент: Фан, 1971. –233б.
9. Ахадова М.Из истории математики в Бухаре / Математика на средневековом Востоке.Тошкент, Фан, 1978. – 112с.
10. Болтаев М. Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн Сины и его школы. Душанбе:“Ирфон” нашриёти, 1965. – 98.Б.;
11. Имамходжаева А. Ибн Сина и Аристотель: развитие логических идей. Дисс. на соиск. уч.ст.канд.наук.-Тошкент: 1990.
- 12.Файзихўжаева Д.Абу Наср Форобий ва Ибн Сино мантиқий исботлаш ҳақида.- Тошкент:- 2013.
- 13.Фаробий. Рисолалар//Логика тўғрисидаги рисолага муқаддима. Тошкент., ФАН. 1975.
14. Ibn Sina (Avicenna). Kitab al-Shifa (The Book of Healing). Ed. I. Madkur. Cairo: al-Nay'a al-Misriyya al-'amma lil-Kitab, 1952–1983. (Арабча) (Metz, 2014).
15. Абу Али Абн Сина. Даниш-намэ. Избранные произведения.//Душанбе,1980. Том-1.С.80.
16. Ибн Сина. Указания и наставления // Абу Али Ибн Сина. Избранные Произведения. т.1. – Душанбе.: 1980. С.420
17. Аристотель Топика //Сочинения в четырех томах. Т.2. М.: Мысль, 1978.